

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA ONA TILI DARSLARINI O'RGATISHNING LINGVISTIK KONSEPTUAL ASOSLARI

Yigitaliyeva Shoxsanam Isog'aliyevna
Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim kafedasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritadi. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini rivojlantirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligi darsini to'g'ri tashkil eta bilish haqida qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, konsept, fikr, tushuncha, innovatsiya, ijodkorlik, erkin fikrlilik, interfaol metodlar, nutq madaniyati, dars samaradorligi.

Annotation. This article reflects on the effective organization of native language and reading literacy classes in elementary grades. First of all, to improve students' literacy, they should learn to read correctly, increase vocabulary, and teach them to think broadly. , in the study of a number of features such as the development of speech and consciousness, views on the ability to properly organize the lesson of mother tongue and reading literacy have been put forward.

Key words: person, concept, idea, understanding, innovation, creativity, free thinking, interactive methods, speech culture, lesson efficiency.

Абстрактный. В данной статье размышляется об эффективной организации занятий по родному языку и читательской грамотности в начальных классах. Прежде всего, для повышения грамотности учащихся следует научиться правильно читать, увеличить словарный запас, научить широко мыслить. выдвинут ряд особенностей, таких как развитие речи и сознания, взгляды на умение правильно организовать урок родного языка и грамотность чтения.

Ключевые слова: человек, концепция, идея, понимание, новаторство, творчество, свободомыслие, интерактивные методы, культура речи, эффективность урока.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalardagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda.

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining „Kirish“ qismida „Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish sa-lohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash

salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi", - deb alohida ta'kidlangan. Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, „Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab"da ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi.

Ma'lumki, ma'no bildiradigan tovushlar yig'indisi so'zdir. Tilning lug'at boyligi, leksikasi fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos qurilish materialidir.

Tilning lug'ati qanchalik boy bo'lsa ham grammatikasiz u o'lik hisoblanadi. Tilning lug'at boyligi o'z-o'zicha aloqa vazifasini bajar-maydi. Aloqa maqsadida xizmat qilish uchun lug'at boyligidagi so'zlar bir-biri bilan grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, gap tuziladi. Mana shu tuzilgan gap orqali fikr ifodalanadi.

Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til „birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar; leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z; grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap; so'z yasalihi uchun morfema, tuzilishi va yasalihi jihatdan so'z hisoblanadi.

So'z, so'z birikmasi va gap grammatik tomondan ko'pgina xususiyatlarga ega. So'zning o'z morfemik qurilishi, o'zining so'z yasalihi turi, biror grammatik kategoriyasi (shaxs, son, egalik, kelishik va boshq.), ma'lum sintaktik vazifasi bor. So'z birikmasi ham so'z kabi so'z o'zgarishi (ko'proq ergash so'z o'zgaradi) shakllariga ega. Gap o'z qurilishiga ko'ra so'zdan sifat jihatdan farqlanadi: so'z o'zi alohida kelganda mustaqil ma'no anglatmaydigan morfemalardan tuziladi, gapni tashkil etuvchi qismlar esa gapdan tashqarida ham mustaqil leksik ma'no bildiradi, gap tarkibida esa uning ma'nosi yana oydin-lashadi. Gap va so'z birikmasi „qurilish materiali" sifatida xilma-xil tuzilgan so'zdan foydalanadi. Gap uchun qator sintaktik xususiyatlar, shuningdek, tugallangan ohang ham xarakterlidir.

Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi.

Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rinadi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday

qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Leksikologiya so'z yasalihi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalihi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi.

Morfologiya leksikologiya va so'z yasalihi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zning grammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi, har bir so'z, bir tomondan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so'zning o'z leksik ma'nosi bo'ladi. So'zdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi.

So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yasalmasin, u doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida so'z yasalihi xarakterli xususiyatlari mavjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasalihi usullari tilshunoslik fanining so'z yasalihi bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi.

„So'z“ mavzusi o'tilayotganda o'quvchilar tomonidan so'zning talaffuzi, leksik ma'nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalihi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o'qituvchi so'zning nom bo'lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma'nosining bir-biriga ta'sirini ham o'quvchilarning tushunib olishlariga erishishi lozim.

„Gap“ mavzusini o'rganish vaqtida esa ishning asosiy yo'nalishi nutqda gapning til birligi sifatidagi vazifasini tushuntirish va o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqlarida gapdan oson foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan tomonlari mavjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda ilmiy asos hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining turlari va ularga qo'yiladigan talablar. Ona tili darslarining turlari va qurilishi.

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasaliş usullari haqidagi (so'z-yasalishiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilari-ning ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalişiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoi-dalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UMAROVA, N. R., & Yigitaliyeva, S. I. A. Q. (2021). Concept as a basic unit of cognitive linguistics. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*,(9), 701-704.
2. Rustamovna, U. N., & Shohsanam, Y. (2022). The realization of the concept of goodness in English and uzbek proverbs. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(7), 148-152.
3. Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF "GOODNESS" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Yigitaliyeva, S. (2021). Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Linguistic analysis the concept of GOODNESS
6. S Yigitaliyeva - Scienceweb academic papers collection, 2021 113-115.
7. Ubaydullaevna, N. S., Mehmonalievich, T. A., Mamirovna, H. K., & Nosirovna, N. D. ON THE PRINCIPLES OF CATEGORIZATION OF WORDS.